



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





AMIR TEMUR VA UNING HARBIY ISLOHOTLARI

Qosimova Mohinigor

Kokand University Andijon Filiali IT-ijtimoiy gumanitar fakulteti

Tarix yo'nalishi 25-03 guruh talabasi

Yunusova Buxajal Alimovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali

“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning harbiy sohada amalga oshirgan islohotlari, qo'shin tuzilishi va boshqaruv tizimi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Temur davlatining harbiy qudratini oshirishda “Tuzuki Temuriy”da belgilangan qoidalar, qo'shinni o'nliklar tizimi asosida tashkil etish, intizom, josuslik xizmati, harbiy tayyorgarlik va strategiyalar muhim o'rin tutishi yoritilgan. Shuningdek, Temurning jang taktikalari, harbiy safari dasturlari va g'alabalarining asosiy omillari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: islohot, tumanlik, strategiya, intizom, qo'shin, “Temur tuzuklari”.

Abstract. This research provides a comprehensive analysis of Amir Temur's military reforms, army structure, and management system. The study highlights the military principles outlined in the “Temur's Code” (“Tuzuk-e Temuri”), the decimal-based army organization, strict discipline, intelligence services, military training, and strategic planning. It also examines Temur's military campaigns, his tactical methods, and the key factors behind his victories.

Keywords: reforms, tuman, strategy, discipline, army, “Temur's Code”.

Аннотация. В данной статье всесторонне исследуются военные реформы Амира Темура, структура армии и система управления вооружёнными силами. Особое внимание уделено принципам, изложенным в “Тузуки Темура”, организации армии на основе десятичной системы, строгой дисциплине, системе разведки, военной подготовке и стратегическому планированию. Рассматриваются военные походы Темура, его тактические приёмы и основные факторы одержанных побед.

Ключевые слова: реформы, туманная, стратегия, дисциплина, армия, “Уложения Темура”.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tarixiy shaxslarni nomlari qayta tiklanib, tariximiz xolisona yoritila boshlandi. Shunday shaxslardan biri davlatchiligimizda muhim o'rin egallagan Amir Temur tashqi va ichki siyosatda qudratli davlat barpo etish uchun harbiy sohani ustuvor ahamiyatga ega yo'nalish sifatida belgilagan davlat arbobi va sahnafori jahon sarkardasidir. XIV asrdagi murakkab geosiyosiy vaziyat, Chingizxon





imperiya parchalanishi ortidan yuzaga kelgan bo'shliq va mintaqada davlatlari o'rtasidagi raqobat harbiy tashkilot va strategiyani tubdan isloh qilishni taqozo etardi. Amir Temur ana shunday sharoitda kuchli, intizomli va markazlashgan qo'shin tuzish orqali nafaqat Movarounnahrda siyosiy barqarorlikni ta'minladi, balki ulkan saltanat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. Uning harbiy islohotlari qo'shinning tashkil etilishi, boshqaruv tizimi, intizomi, askar tayyorlash, razvedka xizmati, jang taktikasi va moddiy ta'minot kabi bir qator yo'nalishlarni qamrab olgan. Temurning harbiy islohotlari natijasida yuzaga kelgan mukammal armiya nafaqat davrning eng kuchli qo'shini bo'ldi, balki keyingi asrlar sarkardalari uchun ham o'rnak va tajriba maktabi sifatida xizmat qildi. Amir Temur amalga oshirgan harbiy islohotlar jahon harbiy san'ati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgani bilan ahamiyatlidir.

Amir Temur to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay milodiy 1336-yil 9-aprel kuni Kesh (hozirgi Shahrizabz) yaqinidagi xushmanzara ko'hna Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Amir Tarag'ay Barlos qabilasining nufuzli oqsoqoli edi. Onasi Takina Xotun Buxoro ulamolari peshvosi Ubaydullox al-Buxoriyning qizi bo'lgan. Amir Temur bolaligidanoq ilmga chanqoq, zehnli, og'ir-bosiq, shoshilmay fikrlaydigan bo'lgan. Yoshlik chog'laridanoq harbiy bilimlarni tez egallay boshlagan. Tartib-intizomni yaxshi ko'radigan va unga amal qilishni yoqtiradigan inson sifatida voyaga yetdi. Amir Temur har jabhada har masalada chuqur o'ylab keyin ish yurutadigan shaxs sifatida e'tirof etilgan. Ustozlari, ota-onasi yordamida va o'zining harakatlari bilan egallagan bilimlari tufayli markazlashgan davlat tuza olgan. 12 yoshidan boshlab davlatni boshqarishni o'rgangan. Amir Temur adolatli, kezi kelganda qattiqqo'l, kezi kelganda rahmdil podshoh bo'lib ulg'ayadi. Ilm-fan sifatida, kuchli diplomatik, buyuk sarkarda va shaharlar bunyodkori sifatalarida ham yaxshi tanilgan. Milodiy 1370-yil 9-aprelda 34 yoshida davlat boshiga keladi. Podshohlik taxtida 36 yil o'tirdi. O'g'illari va nabiralari soni 36 ta. Sohibqiron naslidan 36 ta podshoh va podshohzodaga davlatni boshqarish nasib qilgan. U bilan bog'liq "Kuch adolatda" iborasi juda mashhur. Uzugiga o'yib yozdirilgan va davlat muhrida ham aks etgan. "Mamlakat zulmga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi" degan fikrlari bor. Amir Temur jahonning eng mashhur 4 sarkardalaridan biridir. Kuragi yerga tegmagan buyuk lashkarboshi va buyuk armiya qo'mondoni edi. O'rta Osiyo tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk sarkarda va davlat arbobi hisoblanadi. U o'z davrida siyosiy va harbiy jihatdan kuchli markazlashgan davlat barpo etib, uni mustahkamlash uchun keng ko'lamli harbiy islohotlar o'tkazgan. Amir Temur davlat qurilishining bosh omili sifatida harbiy islohotlarni izchil amalga oshirdi. U avvalo lashkarni tashkil etish, boshqarish, sarkardalarni saralash, harbiy intizomni mustahkamlash hamda moddiy-ta'minot tizimini isloh qilish orqali o'z davri uchun namunali bo'lgan harbiy tizimni yaratdi. Temur





armiyasining muvaffaqiyati uning harbiy siyosati ilmiy asoslangan, aniq tartib va qoidalarga tayanib qurilganidan dalolat beradi [1,52]. Amir Temur qo'shin boshqaruvida o'nlik — yuzlik — minglik — tumanlik tizimiga asoslangan aniq harbiy ierarxiyani joriy etdi. Har bir lavozim mas'uliyat darajasiga qarab belgilanar, lashkar 10, 50, 100, 1000 va 10 000 kishilik bo'linmalarga ajratilar edi. Har bir bo'linma boshlig'i sarkarda sifatida qat'iy javobgarlikka ega bo'lgan, bu esa qo'shin boshqaruvida markazlashuvni ta'minladi (Temur, 1991: 35). Ushbu tizim qo'shnlarni tez safarbar etish, tartibli yurishlar hamda jang maydonida boshqaruvning uzluksizligini ta'minlagan.

Temur oliy harbiy kengash — “Kengash ul-arbob” orqali yirik harbiy qarorlarni muhokama qilib borar, yurishlar oldidan strategik vazifalarni muhokama qilishni majburiy qilar edi [3,119]. Bu esa harbiy maslahat an'alarini chuqurlashtirishda muhim o'rin tutdi.

Harbiy intizom Amir Temur islohotlarining eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u “Temur tuzuklari”da alohida tartibga solingan. Qo'shin ichida qoidabuzarlik, itoatsizlik, xiyonat, talon-toroj, jang paytida safni tark etish kabi jinoyatlar uchun qat'iy jazolar belgilangan [2,43]. Shu bilan birga, jasorat, fidoyilik, mardlik ko'rsatgan askarlar mukofotlanar, yer-suv, mansab yoki moddiy mukofotlar bilan rag'batlantirilgan [4,63]. Rag'bat va jazo tizimi qo'shin intizomini mustahkamlagan. Temur qo'shinini tayyorlashda jismoniy chiniqish, ot chopish, qilichbozlik, kamondan o'q otish, hushtak bilan aloqa, manevr va saf mashqlari majburiy bo'lgan [1,58]. Har bir lashkar boshi o'zi boshqaradigan qo'shin bilan birga muntazam mashq o'tkazishi kerak edi. Sarkardalar esa urush san'ati, strategiya, daryo oshish, istehkom olish, to'satdan hujum qilish, himoyani mukammal bilishi zarur bo'lgan. Temur diplomatiyani ham harbiy strategiyaning bir qismi sifatida qo'llagan — ba'zan urushsiz ham g'alabaga erishish uchun siyosiy ittifoqlar tuzgan, dushmani bo'lib tashlash usulini qo'llagan. Natijada Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan harbiy islohotlar nafaqat o'z davridagi, balki bugungi kunda harbiy san'atga ham ta'siri juda kata bo'ldi. [5,14].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan harbiy islohotlar o'z davrining harbiy san'ati taraqqiyotida tub burilish yasadi. U armiyani faqat jangovar kuch sifatida emas, balki davlat barqarorligining bosh tayanchi, siyosiy qudratni ta'minlovchi asosiy vosita sifatida shakllantirdi. Harbiy islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlagan muhim omillardan biri ularning huquqiy asosining mavjudligi bo'lib, “Temur tuzuklari” ushbu jarayonning nazariy hamda amaliy poydevorini yaratdi [2,58]. Unda harbiy boshqaruv, intizom, jazolash va rag'batlantirish tizimining aniq tartibga solingani harbiy tizimning barqaror ishlashini kafolatlagan. Temur qo'shinining kuch-qudrati, jahonning turli hududlarida qo'lga kiritgan g'alabalari, ayniqsa, Turon, Erondan Hindistongacha bo'lgan keng hududlarda siyosiy ustuvorlikni qo'lga kiritganligi uning harbiy siyosati samaradorligidan





dalolat beradi. Amir Temur harbiy islohotlari nafaqat Movarounnahrni siyosiy jihatdan birlashtirib, qudratli saltanat barpo etishda, balki jahon harbiy san'ati rivojida ham katta iz qoldirdi. Bugungi kunda ham uning harbiy merosi strategiya, harbiy boshqaruv, intizom va davlat mudofaa tizimining samarali usuli sifatida e'tirof etilib, tarixiy hamda ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda va kelesajak yosh avlodga dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov, B. Amir Temur davlati tarixi. – Toshkent: Sharq, 1996. – 168 b.
2. Temur, Amir. Temur tuzuklari– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 112 b.
3. Bartold, V. Turkiston v epoxu Timura. – Moskva: Nauka, 2002. – 256 s.
4. Sodiqov, Q. Amir Temurning harbiy san'ati va davlat boshqaruvi tizimi. – Toshkent: Akademiya, 2011. – 132 b.
5. Yo'ldoshev, R. "Amir Temur harbiy strategiyasining asoslari va tarixiy ahamiyati." // Ilm sarchashmalari ilmiy jurnali. – 2018. №2. – B. 12–30.

